O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO’PLAMI

(III-QISM)

(2024 YIL 25-NOYABR)

SAMARQAND – 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGIZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“RAQAMLI IQTISODIYOT” KAFEDRASI

«O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLARI TO‘PLAMI

(III-QISM)

(2024 yil 25-noyabr)

SAMARQAND – 2024

РЕСПУБЛИКА УЗБЕКИСТАН
МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКА И СЕРВИСА

КАФЕДРА “ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА”

«ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ»

МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

(ЧАСТЬ-III)

(25- ноябрь 2024 г.)

САМАРКАНД – 2024

UO'K: 338.2:004(082)
I-52
KBK: 65.7

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari. / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. 2024 yil 25-noyabr. Samarqand, SamISI, 2024. – 234 bet.

Nashr uchun mas'ullar:
Q.J.Mirzayev – iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D.X.Aslanova- iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, professor.
E.Shavqiyev – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor.
S.A.Isxakova – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
G'.S.Mustafoyev – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
S.B.Boboqulov – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.
Sh.I.Artikova – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v/b

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: Sh.I.Artikova – iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent v/b.
Sahifalovchi: F.F.Ulugmurodov

An'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy sohalarda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlashning ilmiy-nazariy va metodologik yondashuvlari, aholi bandligi, farovonligi, yashash sifati va darajasini yuksaltirishdagi rolini oshirish masalalari, xizmat industriyasi bilan integratsiyalashuv jarayonlaridagi tendentsiyalari va istiqbolli yo'nalishlari, sohani rivojlantirish muammo va yechimlari, boshqaruv usullari va ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishda raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish yo'llari, raqamli iqtisodiyot bilan bog'liq soha samaradorligini bank – moliyaviy tizimi orqali oshirish mexanizmlari, korxonalarda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistik hisob usullarini takomillashtirishning innovatsion yondashuvlari, servis tizimi xizmatlarining sifati va samaradorligini oshirish yo'llari, sohani shakllantirishda raqamlashtirish muammolari va ularning yechimlariga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va tezislar o'rin olgan.

В материалах традиционно международной научно-практической конференции вошли статьи и тезисы, богатые научно-теоретическими и практическими рекомендациями, направленными на научно-теоретические и методологические подходы к обеспечению устойчивых темпов роста цифровой экономики в экономических сферах, вопросы повышения роли цифровой экономики в обеспечении занятости, благосостояния,

повышения качества и уровня жизни населения, тенденции и перспективные направления в процессах интеграции с индустрией услуг, проблемы и решения отраслевых задач, методы управления и перспективы развития цифровой экономики в социально-экономическом развитии. улучшение пути, механизмы повышения эффективности сферы, связанной с цифровой экономикой через банковско – финансовую систему, инновационные подходы к совершенствованию методов бухгалтерского учета, экономического анализа, аудита и статистического учета на предприятиях, пути повышения качества и эффективности услуг сервисной системы, проблемы цифровизации в становлении промышленности и пути их решения.

The materials of the the traditionally international scientific and practical conference included articles and abstracts rich in scientific, theoretical and practical recommendations aimed at scientific, theoretical and methodological approaches to ensuring sustainable growth rates of the digital economy in economic spheres, issues of increasing the role of the digital economy in ensuring employment, welfare, improving the quality and standard of living of the population, trends and promising areas in the processes of integration with the service industry, problems and solutions to industry problems, management methods and prospects for the development of the digital economy in socio-economic development. improvement of the path, mechanisms for increasing the efficiency of the sphere related to the digital economy through the banking and financial system, innovative approaches to improving accounting methods, economic analysis, audit and statistical accounting at enterprises, ways to improve the quality and efficiency of services of the service system, problems of digitalization in the formation of industry and ways to solve them.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar ma’suldir. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to’g’ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-9795-7-6

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2024

3. “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021 yil 17 fevral PQ-4996-son Qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2020 yildagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699 son qarori/ https://lex.uz/docs/-4800657

UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI TASHKIL ETISH BO’YICHA HARAJATLARNI KAMAYTIRISH YO’LLARI

Boboqulov Sanjar Baxronkulovich
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
dotsenti, PhD. tel: +998941891989
e-poch: ferdu_www@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif uy-joy kommunal xizmatlarini tashkil etish jarayonida vujudga keladigan xarajatlarni kamaytirish bo’yicha tahlil, tadqiqotlar olib borgan bo’lib, soha faoliyatini yanada kamxarajatli xizmat ko’rsatishga qaratilgan fikr va mulohazalari keltirilgan. Shuningdek, maqolada uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish jarayonida xarajatlarni kamaytirish bo’yicha taklif va tavsiyalar hamda xulosalar keltirilgan.

Kalit so’zlar: uy-joy, kommunal, kommunal xizmat, xizmat, servis, elektr ta’minoti, gaz ta’minoti, oqova-suv ta’minoti, maishiy chiqindi, ekspuliatsiya.

ПУТИ СНИЖЕНИЯ ЗАТРАТ НА ОРГАНИЗАЦИЮ ЖИЛИЩНО-КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ

Аннотацияю В данной статье автором проведен анализ, исследования по снижению затрат, возникающих в процессе организации жилищно-коммунальных услуг, приведены мнения и суждения, направленные на оказание услуг с более низкими затратами на деятельность отрасли. Также в статье представлены предложения и рекомендации, а также выводы по снижению затрат в процессе жилищно-коммунального обслуживания.

Ключевые слова: жилищное, коммунальное, коммунальное обслуживание, сервис, электроснабжение, газоснабжение, водоснабжение, бытовые отходы, эксплуатация.

HOUSING AND COMMUNAL SERVICES COST REDUCTION WAYS

Abstract. In this article, the author conducted an analysis, research on reducing the costs incurred in the process of organizing housing and communal services, and provided opinions and judgments aimed at providing services with lower costs for the industry's activities. The article also presents proposals and

recommendations, as well as conclusions on reducing costs in the housing and communal services process.

Keywords: housing, utilities, utilities, service, electricity supply, gas supply, water supply, household waste, operation.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimida harajatlarni tejash, mavjud asosiy vositalardan samarali foydalanish, raqamli kommunal xizmat ko'rsatish tizimini joriy qilish orqali xizmat sifatini va uzluksizligini ta'minlash hozirgi davrning dolzarb muaamolaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev tamonidan 2023-yil 24-may qabul qilinganning "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-162-son Qarorida "kommunal xizmatlar uchun to'lovlarni yagona shaxsiy hisobvaraq orqali amalga oshirishni joriy etish"[4] deb chora-tadbirni belgilab berganligi uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish tizimida izchil islohotlarni olib borishni, kommunal xizmat ko'rsatuvchi korxonalarda ishlab chiqarish harajatlarini tejab-tergashni, shuningdek, kommunal xizmat ko'rsatish boshqaruv jarayonini samarali tashkil etishni taqazo etmoqda. Bu holat xizmat ko'rsatish sifatini hamda samaradorligini yuksalishi, aholi turmush farovonligi oshishida muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi davrda uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish korxonalar harajatlarni kamaytirish strategiyasidan foydalanadilar, unda xodimlar: harajatlarga ta'sir qiluvchi omillarni o'rgananish; texnologik jarayonlarning standartlarga muvofiqligini tekshirish; optimal yukni hisoblash ishlab chiqarish ustaxonalari; ishdagi uzilishlar sabablarini aniqlash; kommunal xizmatlarni jo'natish yoki qabul qilish paytida nosozliklar mavjudligini nazorat qilishni aniqlash kabi metodlardan foydalanadilar. Shundan so'ng, harajatlarni tahlil qilish va optimallashtirish ishlari olib boriladi va aniqlangan harajatlarni kamaytirish dasturini belgilaydilar, keyin uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish korxona boshqaruvchilari uni ko'rib chiqadi.

Shuningdek, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasida harajatlarni kamaytirishni rejalashtirish vaqt bo'yicha bo'linadigan tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi:

1. Moliyaviy intizomga rioya qilish. Moliyaviy intizomga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar shakllantiriladi. Xususan, tasdiqlangan ma'lumotlarga qat'iy amal qiladigan reja ishlab chiqiladi. Boshliq tomonidan qabul qilingan va budjetda belgilab qo'yilgan qarorlar faqat alohida

[4] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev tamonidan 2023-yil 24-may qabul qilinganning "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-162-son Qarori. www.lex.uz

hollarda buzilishi mumkin. Xususan, harajatlarni kamaytirishni rejalashtirish vaqt bo‘yicha bo‘linadigan tadbirlar majmuini o‘z ichiga oladi[5]

2. Buxgalteriya hisobini tashkil etish. Korxona harajatlarini muntazam ravishda qisqartirish uchun moliyaviy hisob va nazorat tizimini joriy etish zarur. Buxgalteriya hisobiga nafaqat harajatlar, balki kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxona daromadlari ham kiradi.

3. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari qarzni qaytarishga qaratilgan tezkor tadbirlarni amalga oshirish kerak. Shuningdek, korxonaning o‘zi zudlik bilan budjet to‘lovlarini, xodimlarga va kontragentlarga to‘lovlarni amalga oshirishi kerak, bu esa jarimalardan korxonalarni saqlab qoladi.

4. Harajatlarni kamaytirish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish. Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxonaning qisqartiriladigan harajatlar moddalarining eng batafsil maqsad qiymatlarini ta’minlashdir. Ushbu tadbirlar doirasida butun kommunal xizmat ko‘rsatuvchi korxona uchun harajatlarni kamaytirish mumkin bo‘lgan tomonlarni aniqlab, har bir tarkibiy bo‘linma bo‘yicha esa sohadagi moliyaviy intizomni kuchaytirish rejasini ishlab chiqish rejalashtirilgan bo‘lishi lozim.


5. Tekshiruvlarni o‘tkazish. Harajatlarni pasaytirish samaradorligini baholash uchun doimiy ravishda doimiy monitoring olib borish zarur, bu esa tegishli harajatlarni kamaytirish uchun rejaga zarur tuzatishlar kiritish bilan mumkin bo‘lgan yetishmovchiliklarni, texnologik yo‘qotishlarni baholashga imkon beradi. Bu jarayon ular ichida taxmin qilinadi zaif tomonlarini aniqlash bilan butun korxona uchun rejani ishlab chiqishni o‘lchaydi, bu yerda harajatlarni kamaytirish mumkin va har bir tarkibiy bo‘linma uchun – uchun mahalliy moliyaviy intizomni mustahkamlash[6] mumkin bo‘ladi.

6. Zararlarni tahlil qilish. Har qanday natija, shu jumladan salbiy, qo‘shimcha harajatlarni kamaytirish uchun ehtiyotkorlik bilan tekshirilishi kerak. Kommunal xizmatlarni arzonlashtirilgan narxlarda sotishga majbur qiladigan ishlab chiqarish yo‘qotishlarini tahlil qilish kerak. Kamchiliklar, o‘zgartirishlar va rad etishlar ham alohida e’tiborga olish lozimdir.

Shuningdek, bizningcha raqamli iqtisodiyotga o’tish sharoitidan kelib chiqib, uy-joy kommunal xizmat ko’rsatish subyektlari faoliyatini optimallashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amaliyotga tadbiq etish maqsadga muvofiq (1-rasm).

[5] Нифонтов А. И., Тюфякова О. П. Формирование бюджетов филиалов-шахт угольной компании. Новокузнецк, 2015. 44 с.

[6] Метсанурк Э. Г., Орлов В. П., Тюфякова О. П. Формирование управленческого учета и учетной системы угольной компании (филиала-шахты) // Антикризисное управление: производственные и территориальные аспекты. Сборник статей V Всероссийской научно-практической конференции. Новокузнецк, 2007. С. 147-150.



1-rasm. Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatini optimallashtirish yo'llari[7]

Yuqorida keltirilgan rasm ma'lumotlaridan kelib chiqib, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish jarayonida xarajatlarni kamaytirish maqsadida keltirilgan tavsiyalarimizni keng miqyosda tahlil qilib chiqamiz. Xususan:

1. Energiya samaradorligini oshirish. Uylarning issiqlik izolyatsiyasini kuchaytirish orqali qish oylarida isitish, yozda sovutish xarajatlarini kamaytirish, energiya samarador lampalar (LED), zamonaviy maishiy texnikalarni ishlatish hamda quyosh energiyasidan foydalanish bilan elektr energiyasi xarajatlarini kamaytirish.

2. Oqova-suv ta'minoti kommunal xizmatlarini tejash. Oqova-suv ta'minoti kommunal xizmatlarini optimallashtirish uchun aeratorli jo'mraklarni o'rnatish, kanalizatsiya suvlari, shuningdek, yomg'ir suvlarini filtrlash tizimlari yordamida suvni qayta ishlash.

3. Issiqlik tizimini optimallashtirish. Markazlashgan isitish tizimlarining samaradorligini oshirish uchun quvurlarni modernizatsiya qilish, "smart" termostatlardan foydalanish va haroratni avtomatik boshqarish orqali energiyani tejash.

4. Kommunal xizmatlarda raqamlashtirish. Bu jarayonda kommunal xizmatlar Resurslari iste'molini aniqroq nazorat qilish uchun "aqlli" hisoblagichlardan foydalanish, elektr va suv ta'minotida nosozliklarni tezda aniqlash uchun "online" monitoring dasturlaridan foydalanish.

5. Uy-joy jamiyatlari faoliyatini takomillashtirish. Ushbu islohotni amaliyotga tadbiq etishimizda xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan ochiq shartnomalar tuzish va xizmatlar sifatini nazorat qilish, resurslardan samarali foydalanishga oid kampaniyalarda ishtirok etishini ta'minlash.

[7] Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

6. Qonunchilikdagi yengilliklardan foydalanish. Ushbu jarayon nozik masalalardan biri bo'lib uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish xizmatlari monopol bo'lganligi bois, hukumat tomonidan taqdim etiladigan subsidiya va grantlardan foydalanish, Energiya tejash loyihalariga oid soliq imtiyozlardan to'laqonli foydalanishni tadbiq etish.

Yuqorida keltirilgan chora-tadbirlarni uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish jarayoniga tadbiq etishimiz natijasida soha faoliyatidagi xarajatlar keskin qisqarishi, ko'rsatilgan xizmatlarning hajmini ortishi, qayta tiklanmas tabiiy resurslar tejalishi, aholini kommunal xizmatlar uchun ortiqcha to'lovlarni to'lamasligiga olib keladi. Bu esa mamlakatimiz ijtimoiy muhitini yaxshilashi natijasida jamiyat ijtimoiy samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Buning natijasida qolgan soha va tarmoqlar aks ta'sir etib samaradrolikni oshishi natijasida iqtisodiy o'sishga xizmat qilishi mumkin. Zero, jamiyatdagi institutsional jarayonlar o'zoro bir-biriga uyg'unligini inobatga olib uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohasini optimallashtirishimiz bugungi davrning asosiy amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoev tamonidan 2023-yil 24-may qabul qilinganning "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-162-son Qarori. www.lex.uz
2. Bobokulov S.B. Diversifying the service field under digitalization //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – V. 11. – ISSN Online: 2771-8948. – P. 218-224.
3. Метсанурк Э. Г., Орлов В. П., Тюфякова О. П. Формирование управленческого учета и учетной системы угольной компании (филиала-шахты) // Антикризисное управление: производственные и территориальные аспекты. Сборник статей V Всероссийской научно-практической конференции. Новокузнецк, 2007. С. 147-150.
4. Нифонтов А. И., Тюфякова О. П. Формирование бюджетов филиалов-шахт угольной компании. Новокузнецк, 2015. 44 с.
5. Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

MUNDARIJA:

III -QISM		
I-SHO‘BA. RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI RIVOJLANISHINING NAZARIY-METODOLOGIK MASALALARI		
Mirzayev Qulmamat Jonuzakovich	O’ZBEKISTONDA KREATIV IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO’NALISHLARI	5
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich	UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI TASHKIL ETISH BO’YICHA HARAJATLARNI KAMAYTIRISH YO’LLARI	9
Musurmonova Muxlisa Samandar qizi Ortiqov Farmonboy Raxmon o‘g‘li	THE IMPORTANCE OF SERVICE SECTORS AND MEASURES TO IMPROVE IT IN THE CONTEXT OF THE TRANSITION TO THE DIGITAL ECONOMY	14
Maxmudov Laziz Ubaydullayevich Madrimova Aziza Shuxrat qizi	XIZMAT KO’RSATISH SOHASIDA SAVDO XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	17
A.X.Salamov	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISTE’MOL KREDITLARI XIZMATINING AHAMIYATI	21
Z.I.Ravshanov	XIZMAT KO‘RSATISH VA OVQATLANISH XIZMATLARINI MODERNIZATSIYALASH ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	25
Ulugmurodov Farxod Faxriddinovich	ELEKTRON SAVDO XIZMATLARINI INNOVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISH	30
Аҳмаджон Таниев	ИННОВАЦИЯ ВА СЕРТИФИКАЦИЯ: ТУРИЗМ СОҲАСИДАГИ ТЕНДЕНЦИЯЛАР	33
Халикова Лола Назаровна Ғаниев Ғайратжон Ғуломиддинович	ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ МОДЕРНИЗАЦИЯЛАШ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА НИСБАТАН ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВНИ ТАЛАБ ЭТАДИ	41
R.I.Pardayev	TURISTIK XIZMATLAR SIFATINING IQTISODIY MAZMUNIGA NAZARIY YONDOSHUVLAR	45
Халимов Шахбоз Халимович	РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТГА ЎТИШ ШАРОИТИДА ҚИШЛОҚ ЖОЙЛАРИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ САМАРАДОРЛИГИНИ	52